



XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2024-yil 24-oktabr

VI-89-91-11-163-K/24

Farg‘ona tumani

Tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘srimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining «2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi (O‘RQ-886-sonli) Qonuni, “Mahalliy Davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonuning 6 va 25-moddalari, Byudjet kodeksining 28 va 126-moddalari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 22-sentyabrdagi “Ochiq byudjet axborot portali orqali jamoatchilik fikri asosida shakllangan tadbirlarni moliyalashtirishni yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5250-sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-7 may kunlari Farg‘ona viloyatiga tashrifi yakunlari bo‘yicha tasdiqlangan (22.05.2019 yil 11700-xx-sonli) majlis bayonining 18-bandji ijrosini ta’minalash yuzasidan qabul qilingan Xalq deputatlari viloyat Kengashining 2019-yil 3-iyundagi VLIV/234-sonli sessiya qarori ijolarini ta’minalash hamda tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘srimcha manbalarini mablag‘laridan foydalanish yuzasidan Xalq deputatlari Farg‘ona tuman Kengashi

Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasining «2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida»gi (O‘RQ-886-sonli) Qonuni, Byudjet kodeksining 28 va 126-moddalariga muvofiq, tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 3-chorak yakuni bilan 831 417,0 ming so‘m qo‘srimcha manbalarini shakllanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman mahalliy byudjetining 2024-yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘srimcha manbalarini hisobidan:

- tuman hokimligi huzuridagi “fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga 30 foiz 215 000,0 ming so‘m;

- xodimlarning ish samaradorligi va mas’uliyatini oshirish uchun ularning mehnatini moddiy jihatdan qo‘llab-quvvatlash maqsadida joriy yilning 3-choragi uchun ish haqiga qo‘srimcha ravishda har oylik ustama to‘lovlar belgilash harajatlari uchun tuman hokimligiga 188 750,0 ming so‘m, kengash kotibiyatiga 27 339,0 ming so‘m, ijtimoiy

ko‘nikma markaziga 7 060,0 ming so‘m hamda iqtisodiyot va moliya bo‘limiga 130 963,0 ming so‘m;

- tuman hokimligi tashkiliy-nazorat guruh rahbarini oylik lavozim maoshi miqdorida joriy yilning sentyabr-oktyabr oylari uchun rag‘batlantirish harajatlariiga 9 948,0 ming so‘m ajratilishi;

- tuman hokimligining qo‘riqlash xizmati harajatlari uchun 45 000,0 ming so‘m, ichimlik suvi harajatlari uchun 11 000,0 ming so‘m;

- shuningdek, tuman obodonlashtirish boshqarmasining “Yashil makon” dasturi doirasidagi harajatlari hamda mahallalar infratuzilmalarining mavjud muammolarini yaxshilash bo‘yicha hududlardan tushayotgan taklif va murojaatlarni hal etilishi bilan bog‘liq bo‘lgan harajatlar uchun 81 274,0 ming so‘m ajratilishi ta’minlansin.

3. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Yusupov)ga, ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha qayd etilgan muassasalar tomonidan tuziladigan harajatlar smetalarini belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish, tuman g‘aznachilik xizmati bo‘linmasi (Sh.Ziyabidinov)ga to‘lovlarni o‘rnatilgan tartibda va o‘z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Tuman kengashi kotibiyati, iqtisodiyot va moliya bo‘limi, obodonlashtirish boshqarmasi rahbarlari hamda hokimlik bosh hisobchisiga ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanishini ta’minalash vazifalari yuklatilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Farg‘ona tuman Kengashining “Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investisiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha” doimiy komissiya raisi Sh.Jo‘rayev hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari O.Abduraximov zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi



INOMOV XAMIDULLO
TADJIYEVICH